

## **YOMG'IR OBRAZINING RAUF PARFI LIRIKASIDA AKS ETISHI**

Inobat Bahodirovna Madraximova

CHDPU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasи o'qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Rauf Parfi ijodida yaqqol ko'zga tashlanadigan yomg'ir obrazi haqida va uning lirik qahramon ruhiyatiga ta'siri, yomg'ir faqtgina tabiat xodisasigina emas balki insonlarni dardini arituvchi vositasi sifatida tasvirlanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** obraz, she'r, yomg'ir, lirika, poetika, she'riyat

### **Abstract:**

This article talks about the image of rain, which is clearly visible in the work of Rauf Parfi, and its influence on the psyche of the lyrical hero, and how rain is depicted not only as a natural phenomenon, but also as a means of relieving people's pain.

**Keywords:** image, poem, rain, lyrics, poetics, poetry.

Rauf Parfi – o'zbek she'riyatida o'z o'rni va mavqeyiga ega iste'dodli ijodkorlardan biri sanaladi. Shoir o'zining poetik fikr va qarashlarini ifodalashda turli obrazlar, timsollar va badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. Obrazlar ko'chma ma'noda va o'z ma'nolarda qo'llanilib, badiiylik va hayotiylikka yo'g'rilgan holda tasvirlanadi. Taniqli adabiyotshunos D.Quronov badiiy obraz haqida o'zining quydagi fikrlarini bayon qildi: "Badiiy obraz – adabiyot va san'atning fikrlesh shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriysi". Binobarin, ijodkor osmon jismi bo'l mish oy timsolidan turli xil manzaralarni va turfa ma'nolarni shoirona tasvirlashda so'zlarni ipga terilgan marjonday tasvirlab bergan. Quyida biz shoir ijodida alohida urg'u berilgan yomg'ir obrazini tahlilga tortishga jazm qildik. Yomg'ir obrazi badiiy adabiyotda an'anaviy obraz hisoblanib, u shoir va yozuvchilarning ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari, davrning o'ziga xos holati va tabiiy tabiat hodisasi kabi turli ma'nolarni anglatib keladi. Xususan, hadisu sharifda ko'p yog'gan yomg'ir ilmga qiyoslansa, zamoniy adabiyotimizda esa orzular ro'yobi, dardlarga davo bo'luvchi Malham sifatida, lirik qahramonning doimiy hamroxi, tinchlik, sokinlik, poklik va boshqa ma'nolar keladi. Rauf Parfi lirikasida ham yomg'ir obrazi rang-barang va turli tuman manzaralarda tasvirlanganligiga guvoh bo'lamiz:

1. Yomg'ir-bahor faslining sevimli yo'ldoshi. Ba'zan ko'klamda kun bo'yi yomg'ir yog'adi. Endigina uyg'ongan novdalar va barglar yomg'irning sharofati bilan sinishi tabiiy hol albatta. Shoir ushbu holatni mohirona, betakror misralarda gavdalantirgan. Ushbu bandda Rauf Parfi yomg'irni o'z ma'nosida qo'llab, betakror tabiat tasvirini chizgan:

Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,

Ivishgan novdalar sindilar.

Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,

Barglari jon uzib tindilar

2. Yomg‘ir-qorong‘ulik bilan sirdosh obraz. U qorong‘ulik tomon yog‘ib, o‘z hukmronligini o‘tkazadi. Bog‘larning ham sovuqqina shovullashi (yomg‘irning shitirshitir ovozi tufayli) lirik qahramonning ruhiyatini aks ettirgan. “Qorong‘ulik” va “sovuccqina” jumlalari yomg‘ir obraziga ramziy ma’no yuklagan: Yomg‘ir urar qorong‘ulikka, Sovuccqina shovullar bog‘lar.

3. Yomg‘ir-ba’zan odamlarni xoldan toydiruvchi, ba’zan esa o‘zidan zeriktiruvchi obraz. U butun osuda kechani ostan-ustun qilishga qodir. Lirik qahramon yomg‘irdan tinka-madori quriganini bayon qiladi. Oddiygina yomg‘ir ona yerning bag‘riga yog‘ib, uning yuzini yumshatadi. Shu kichikinagina zarra ham hattoki yomg‘irning noodatiy qudratidan xabar beradi go’yoki:

Og‘ir tun, qurir tinka...

Qanday izg‘irin kecha.

Bu yomg‘ir tinar qachon?

Yerga botadi tovon,

Loy yopishar etikka.

4. Yoz yomg‘iri-iliqlik va sokinlik ramzidir. U issiq yerning bag‘riga o‘ziga xos namlik, hayot baxsh etadi. Shitir-shitir qo‘shig‘i va o‘ziga xos hidi lirik qahramonga huzur bag‘ishlaydi. Bu rohatlanish hissi shoirning yoz yomg‘iriga bo‘lgan samimiy tuyg‘ularini aks ettirgan:

Yoz yomg‘iri iliqidir biram,

Shitir-shitir uning qo‘shig‘i.

Bir shirin hid taralar yerdan

Va yurakka ketar qo‘shilib...

5. Yomg‘ir – shamol bilan hayrihohlik qiluvchi poetik timsol desak mubolag‘a bo’lmaydi. Keltirilgan misralarda ham yomg‘ir va shamol birgalikda o‘z ma’nosida qo‘llanilib, tunning yorqin tavarini yoritgan:

Tashqarida shovullar shamol,

Yomg‘ir qattiq yog‘ar bu kecha.

6. Yomg‘ir-osmonu falakning dard va alamlarini arituvchi vositadir. Osmonning uyi va o‘ylari buzilsa, u yerga qarab og‘ir yig‘lay boshlaydi. Ijodkor osmonning yig‘lashini yomg‘irga qiyoslaydi. Bu qiyos yomg‘ir timsolining badiiy qirralarini yanada kengaytirgan:

Yomg‘ir yog‘ib chiqdi tun bo‘yi,

Tong oqardi, tinmadi yomg‘ir.

Buzilgandek osmon uyi

Yerga qarab yig‘laydi og‘ir.

7. Yomg‘ir-insonlarning dardiga ham, quvonchiga ham guvoh bo‘lgan tabiat mo’jisasiidir. Ushbu bandda lirik qahramon yomg‘irning shig‘alab (to‘xtovsiz, tez) yog‘ishini ta’riflab, uning ham qayg‘usiga, ham quvonchiga shohid bo‘lganligini aytadi: Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Tomchilar tomchilar sochimga.

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Ham qayg‘umga, ham quvonchimga.

Laylo Sharipova o‘zining “Zamonaviy she’riyatda yomg‘ir obrazi” maqolasida shunday yozadi: “Og‘zaki she’riyatimizda kamroq qo‘llangan holda yozma she’riyatimizda rang-barang poetik qirralar kasb etgan obrazlardan biri-yomg‘ir. Tabiatning bu go‘zal ne’mati suvning evrilish tizimida o‘z o‘rniga ega. Shu sababdan asrlardirki, obrazga aylanib, badiiy badiiy adabiyotni bezab keladi. Yomg‘ir, jala, sel, bahor yomg‘iri-abri nayson ko‘rinishlariga ega bo‘lgan va havo sovuqlik qilsa, do‘l holatini kasb etgan hodisalar alohida-alohida poetik ma’no tashiydi”.

Demak Rauf Parfi ijodida ham yomg‘ir faqat tabiat hodisasi bo‘libgina emas, balki turli xil qarashlar va ma’no-mazmun ifodasi bo‘lib kelgan. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari Rauf Parfi jo‘shqin va betakror tabiat hodisasi bo‘lmish yomg‘irni o‘z hamrohi deb bilib, o‘z lirikasida mohirona tasvirlaydi. Shoirimizning tabiat farzandi ekanligi yuqorida misralardan dalolat beradi. Rauf Parfi ijodida yomg‘ir obrazi turli xil manzaralarda gavdalanadi: yomg‘ir obrazi ijodkor nuqtayi nazari bilan turlicha talqin etiladi va bu obraz har safar o‘zining yangidan yangi qirralari bilan she’rning poetik ruhiyati va badiiyatini ta’minalashga xizmat qilganligi kuzatiladi.

**REFERENCES:**

1. Parfi R. Sabr daraxti. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti, 1986.
2. Parfi R. Qaytish. -T.: Adabiyot va san’at nashryoti, 1981.
3. Quranov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.: Akademnashr, 2013.-B 43.
4. Ahmadaliyeva, M. S. (2022). Text and interpretation in discourse analysis. Trends in Education Foreign Languages and International Economics, 1(1), 382-386.
5. Ахмадалиева, М. И. (2022). Роль литературной критики в саморазвитии писателя. Мугаллим, 1(2), 14-17.
6. Давлатова, А. Р., & Ахмадалиева, М. И. К. (2021). Жадид драматургиясида баркамол шахс ва идеал жамият талқини. Academic research in educational sciences, 2(3), 1100-1108.
7. Madrakhimova, I. B. (2022). The interpretation of autumn in the poetry of Usman Azim. Galaxy, 10(10), 336-340.
8. Bahodirovna, M. I. (2022). The image of human and animals in the stories of normurad norkobilov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 243-245.
9. Madraximova, I. B., Muminov, Z. S. (2022). Abdulla Qahhor hikoyalarida ruhiyat tasviri. Заманагәй тәлим хәм тәрбия технологиялары, 1(1), 358-359.
10. Madraximova, I. B., Muminov, Z. S. (2022). YUKSAK TOG‘LAR FARZANDI. Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари ва уни ўқитиш методикаси муаммолари, 1(1), 177-179.
11. Madraximova, I. B., Nurmamatov, S. A., Maxsumov, M. D. (2022). O‘tkir Hoshimovning dunyoning ishlari qissasida ona siymosi. Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари ва уни ўқитиш методикаси муаммолари, 1(1), 160-162.

12. Madraximova, I. B. (2022). Usmon azim she'riyatida kuz talqini. Innovative developments and research in education, 1(1), 63-66.
13. Мадрахимова, И. Б. (2022). Образ осени в поэзии Зульфии. Роль науки в развитии современного государства, 1(1), 190-197.
14. Мирзорахимов, О. К., & Мадрахимова, И. Б. (2022). Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мактаб ва оиласининг аҳамияти. Academic research in educational sciences, 3(2), 385-389.
15. Madrakhimova, I. B. (2021). Boshlang'ich sinflarida badiiy asarni tahlil qilishda normurod norqobilov hikoyalarining o'rni. Boshlang'ich ta'lif sifat va samaradorligini oshirish, 1(1), 434-435.
16. Baxodirovna, M. I. (2021). Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni. Ta'lif fan va innovatsiya, 1(5), 140-142.
17. Калдыбаева, Д. О., & Каландарова, А. (2021). Преподование и оценка новаторства. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 2), 491-495.
18. Ташмухамедова, Г. Х. (2021). Медиацентр университета как база для создания нового цифрового контента. Современное образование (Узбекистан), (2 (99)), 24-28.
19. Арсланова, Г. Д. (2023). Диагностика личности младшего школьника. Academic Research in Educational Sciences, 4(3), 297–301.
20. Арсланова, Г. Д. (2022). Особенности структуры и содержания базового учебника по предмету «воспитание» в начальных классах. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 124-131.
21. Арсланова, Г. Д. (2022). Практические методы и педагогические приёмы преподавания предмета «воспитание» в начальных классах. Academic research in educational sciences, 3(12), 421-428.